

LANGUAGE AND NON-LISON FACTORS AFFECTING MORPHEMES

UralovAzamat Begnarovich

Doctor of Philosophy

ABSTRACT

This article describes the factors that affect different morphemes. Different factors can play a role in morphemes. They can be external or internal. The internal factor is linguistic. The role of morphemes in linguistics is also determined by the development and evolution that affects it. Word structure changes over time, and morpheme units are affected.

Keywords: *Linguistic possibility, agglutination and fusion, simplification, affix + affix fusion, affix + loading or auxiliary word fusion, auxiliary word + auxiliary word fusion, independent word + auxiliary word or loading fusion, base + affix fusion, independent word + independent word fusion, rings of suffixes, agglutinative languages, agglutination method, fusion method, morphological redistribution.*

INTRODUCTION

O'zbek tilshunosligida morfologik qayta bo'linish hodisasi A.G'.G'ulomovning keyingi ishlarida yanada atroflicha o'rganilgan. Uning fikricha, morfologik qayta bo'linish – so'zning morfemalarga bo'linishi, morfemalar orasidagi chegara – ajralish o'rni tarixiy taraqqiyot natijasida o'zgarishi ham mumkin. Misollar:

1. *Yurish* so'zi shunday: *yuru-g'* (*yurish*), *yur-ug'* (colishtiring: *yo'l-yo'rug'*). So'zning morfemalarga ajralishidagi bunday tarixiy o'zgarish – so'z tarkibidagi morfemalar ajralish chegarasining o'zgarishi – morfologik qayta bo'linish deyiladi.

2. *Ular* olmoshi hozirgi tilda *u-lar* tarzida ajratiladi, lekin bu affiksning boshidagi -l tovushi, aslida, asosnikidir, u olmoshi aslida ul shaklida bo'lgan. Demak, *ul+ar - ular*: asosning bir tovushi affiksga o'tgan, asos qisqargan, morfema kengaygan.

3. *Yozish* ma'nosida hozirgi tilda (og'zaki – so'zlashuv nutqida) ba'zan uchrab qoladigan *bitish* so'zi *bit+ish* shaklida ajraladi (*bitdim, bitding, bitdi*: asos – *bit*), eski o'zbek tilida bu element *biti* shaklida bo'lgan (*biti+di, biti+k*: xat, yozuv; sifatdosh shaklini qiyoslang: eski o'zbek tilida; *biti+r*, hozirgi tilda: *bit+ar*). Demak, *biti+k, bit+ik, biti+m*.

Misollardan ko'rinadiki, odatda morfemalar chegarasida uchraydigan bu hodisani aniqlashda ham so'zning morfologik tarkibi bilan etimologik tarkibini farqlash zarur bo'ladi.

Morfemalar orasidagi chegaraning o'zgarishi – muayyan morfemadagi bir elementning boshqa morfemaga o'tishi, odatda, yangi morfemaniig yuzaga kelishiga yoki bir affiks boshqa variantining paydo bo'lishiga sabab bo'ladi (**-ar > -lar**); bu hodisa **biti (bitmoq - yozmoq, yuri (yurmoq)** kabi o'rinlarda asosdan ajralgan elementning qo'shni morfemaga undoshlarni tutashtiruvchi vosita sifatida o'tishi xarakteriga egadir. Demak, morfologik qayta bo'linish natijasida affiks tashqi tomondan boshqa tusga kiradi.

Morfologik qayta bo'linishning tug'ilish sabablari fonetik (o'zakka affiks qo'shilishi bilan bo'g'in tuzilishining o'zgarishi: **ul+ar – u+lar:ul** va **u, -ar** va **-lar**) va leksik morfologik (o'zak elementining eskirib, avvalgi holatining unutilishi: **ul > u, yuri > yur**) xarakterdagi hodisalar bilan bog'liq.

MAIN PART

Morfologik qayta bo'linish jarayoni o'zbek tilining hozirgi holatida ham kuzatiladi. Bunda ko'p morfemali so'z tarkibidagi affikslarning ma'no – vazifa jihatidan qayta taqsimlanishi jarayonlari yuz beradi. Sh.Rahmatullaevning ko'rsatishicha, hozirgi o'zbek adabiy tili tizimida yangi hurmat shaklining paydo bo'lishi va hurmat kategoriyasi tegishli vositalari qatoriga qo'shilishi ayni morfologik qayta bo'linish tufayli yuz bergan. Olim bu jarayonni quyidagicha tasvirlaydi: Adabiyotlarda *-lar* ko'p ma'noli bitta qo'shimcha sifatida talqin qilinadi. Bunday yondashuv tarixiy-etimologik nuqtayi nazardangina to'g'ri. Hozirgi til grammatik sistemasidan kelib chiqsak, yagona *-lar* affiksiniki deb keltiriladigan ba'zi ma'nolar ham mazmunan, ham vazifada mustaqillik kashf etganini ko'ramiz. Ana shunday ma'nolardan biri – hurmat ma'nosi. Misollarni tahlil qilish ko'rsatadiki, hurmat ma'nosini ifodalovchi *-lar* alohida affiks deb, son kategoriyasi va egalik kategoriyasi sistemasidan tashqarida turuvchi mustaqil shakl deb qaralishi lozim [3. 187].

Xullas, hurmat shakli deb odatda qarindoshlik bildiruvchi ot negizlarga son kategoriyasi shakli bilan kelishik kategoriyasi shakli oralig'ida egalik affiksi bilan birgalikda qo'shib keluvchi *-lar* affiksini tushunamiz.

Bunday hurmat shakli ham qatnashgan ot so'zning morfemik tuzilishi quyidagicha:

Buvi+Ø+m+lar+ni,

buvi+Ø+ng+lar+ni,

buvi+Ø+ngiz+lar+ni,

buvi +Ø+si +lar+ni emas, buvi+Ø+lar+i+ni...

Tasvirdan ko'rinadiki, *-lar* hurmat shakli I-II shaxslarda egalik affiksidan keyin, III shaxsda esa egalik affiksidan oldin joylashadi. Bu qiyosdan xulosa shuki, *-lar* affiksi hurmat ma'nosini egalik affiksidan keyin qo'shilganidagina emas, balki undan oldin joylashganida ham ifodalaydi.

Diqqat qilsak: *-lar* affiksining hurmat shakli sifatida egalik affiksi bilan birga ishlatilishi boshqa, *-lar* ko'rsatkichining egalik affiksining tarkibiy qismi bo'lib kelishi boshqa. Bu ikkita *-lar* affiksining semantikasida umumiy nuqta bor: har ikkisi modal ma'noni ifodalaydi. Ammo bu modal ma'nolar o'z mundariyasi bilan keskin ajralib turadi: birinchisi hurmatni ifodalasa, ikkinchisi sizlashni (ba'zan, aksincha, senlashni) ifodalash uchun xizmat qiladi. Adabiyotlarda bu ikki xil modal ma'no biri ikkinchisiga zid qo'yilmaydi, *-lar* affiksiga xos bir ma'noning qirralari sifatida yonma-yon sanalaveradi.

Asli hurmat shaklini va egalik affiksi tarkibidagi sizlash ko'rsatkichini bir sistemaga birlashtirib bo'lmaydi. Bular ma'nodagina emas, ma'no tarmoqlanishida ham (hurmat → sizlash yoki senlash), mustaqillik darajasida ham (hurmat shakli — mustaqil morfema, sizlash ifodalovchi *-lar* egalik affiksining tarkibiy qismi), so'zning morfem tarkibidagi o'rniga ko'ra ham keskin farq qiladi (Har birining o'z o'rnini bor).

CONCLUSION

Bular affikslarning umumiy tasnifi nuqtayi nazaridan ham boshqa-boshqa guruhga mansub, hurmat shakli morfologik tabiatga, egalik affiksi tarkibidagi *-lar* esa sintaktik tabiatga ega. Shu asosda birinchisini morfologik shakl (shakl yasovchi) deb, ikkinchisini esa (egalik affiksining tarkibiy qismi sifatida) sintaktik

shakl (shakl o'zgartuvchi) deb belgilash lozim. Keyingi paytlarda shu holatda qarash ommalashib boryapti, deyish mumkin.

REFERENCES

1. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. – T., 1985.
2. Mirtojiyev M. Semasiologiya. – T., 2010.
3. O'zbek tili grammatikasi. I jild. – T., 1975.
4. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М., 1966.
5. Бертагаев Т.А. Морфологическая структура слова в монгольских языках. – М. 1969.